

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATINING YANGILANISH VA O'ZIGA XOSLIGI

ESHBEKOVA DILDORA MUMINXANOVNA

*Nukus shahri 32-sonli maktabning ona
tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Istiqlol davri o'zbek she'riyatining o'ziga xos bo'lgan yangilanishi xususida so'zlangan.Zamonaviy shoir Salim Ashurning ayrim she'rlari tahlilga olingan.

Kalit so'zlar:she'r, Istiqlol davr, maqola, tahlilga tortish.

ANNOTATION

This article talks about the unique renewal of Uzbek poetry of the independence period. Some poems of contemporary poem Salim Ashur are analyzed.

Key words: poem, independence period, article, analysis.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается об обновлении узбекской поэзии периода независимости. Были проанализированы некоторые стихи современного поэта Салима Ашура.

Ключевые слова: поэма, независимость период, статья, тяга к анализу.

Istiqlol barcha sohalarga jiddiy o'zgarishlarni olibkelgani kabi o'zbek adabiyotida ham o'zgacha yangiliklarni olib kirdi. Xalq ruhida milliy Vatanparvarlik g'oyasini singdirish, o'zlikni anglash kabi xalqona urf-odatlar bu davr adabiyotida, ayniqsa, she'riyatida yaqqol ko'zga tashlandi. Zamonaviy o'zbek she'riyati ma'naviy va salohiyati jihatidan sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy adabiyotimizda lirika janrini eng oliy namunalari bo'y ko'rsatdi. She'riyatning eng asosiy vazifasi milliy ruhiyatni tarbiyalash, milliy odob-axloq qoidalarini o'rganishdan iborat bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda, ijodkorlarga hur ruhiylik an'analarini shakllantirdi. Ozod fikrlaydigan insonlar barcha narsalarni yorqin anglab, to'g'ri qaror qabul qiladilar. Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytsak: "Odamlarga o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni, o'z qo'limizga olganimizdan g'ururlanish kabi tuyg'ular kamol topyapdi, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib boryapdi"[1, B.226]. Bugungi kun adabiyoti uchun bu fikrlarni keltirib o'tishimiz ayni muddaodir. Zamonaviy adabiyotimiz, ya'ni she'riyatimiz ana shunday faxrlanish va g'ururlanishga arziydigan qimmatga egadir.

Adabiyotning asosiy vositalaridan sanalgan she'riyatda davr o'zgarishi birinchilardan bo'lib o'z ta'sirini o'tkazdi. Istiqlolni nafasi she'riyatimizga tubdan

o‘zgartirishlar olib kelib, kechagi she’riyatimizdan mutlaqo farqli jihatlarini ko‘rsatib berdi. Kechagi kun adabiyotida zamona ziddiyatlaridan, davr muammolaridan shikoyat qilingan she’rlarni ko‘rsak, bugungi kun she’riyatida insonlarning ichki kechinmalari, milliy g‘urur tuyg‘ularini innikosini ko‘ramiz. Ya’ni davr muammolari iqtisodiy o‘zgarishlardan ko‘ra inson ruhiy kechinmalari asosiy o‘rinni egallagan. Zamonaviy she’riyatimiz so‘z sehrining yuksaklik darajasida tubdan o‘zgardi. Istiqlol she’riyati ozod ruhiyat ta’sirida yozilgan bo‘lib, Mustaqillikka shukronalik, kelajakka bo‘lgan ishonch kabi xususiyatlari bilan yaqqol ko‘zga tashlandi. Yangi fikrlanishlar, milliy g‘oyaviy-estetik mezonlar istiqlol she’riyatida bo‘y ko‘rsatdi. Shu bilan birga tabiat manzaralariga berilgan ta’riflarga ham istiqlolning nashidasi ufurulganligi ko‘rindi. She’riyat inson ichki dunyosini ochib beradigan, yagona yo‘ldir. Har bir davrning o‘z farzandi, sodda qilib aytsak, bayroqbardorlari bo‘ladi. Tabiiyki bunday mas’ulayli vazifalar asosan shoirlar zimmasida yuklanadi. Har bir shoir o‘z davrining munosib farzandi ekanligi uchun ham bu vazifa ularga topshirilgan. Istiqlol davr she’riyati yangicha insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etdi. Ya’ni modern she’rlari bu davr adabiyotida bo‘y ko‘rsatdi. ‘Hayot haqiqatidan ma’lumki, shoirning falsafiy tafakkuri, hayoti mushohadasi, lirik qahramon, poetik obrazlar, ramzlar vositasida berilsa, davr ruhini, xalqning orzu-istikclarini, inson kechinmalarini ta’sirchan va yoqimli bo‘lishiga imkon yaratadi. Bugungi she’riyatda shunday qilinayapdi. Shuningdek bugungi she’riyatda azaliy an’analarga bo‘ysunmaydigan yangi yo‘nalish, yangicha usul yuzaga keldi. Bu modern she’riyatidir [2, B.6]. Istiqlol davr she’riyatini yangilanishi, hamda o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini yoritib berishga bir qancha olimlarimiz ijodiy izlanish olib borganlar. Ular qatorida Ozod Sharofiddinov, No‘mon Rahimjonov, Umarali Normatov, Suvon Meli, Ulug‘bek Hamdam, Bahodir Karimov, Uzoq Jo‘raqulov kabi olimlarni sanab o‘tsak o‘rinlidir. Ular yozgan ilmiy asarlar Istiqlol davr adabiyotini yangicha yo‘nalishni she’riyatdagi o‘zgacha xususiyatlarini ochib berishga zamin yaratdi. Bu borada adabiyotshunos Olim Karimovning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir. Hakimjon Karimov Istiqlol davr she’riyatini to‘rt tamoyilga bo‘lib o‘rganishni tavsiya beradi [3, B.6]. Istiqlol davr she’riyati ijod maydonida, ayniqsa, she’riyat ixlosmandlariga keng maydonni ochib berdi. Har bir ijodkor o‘z shaxsi fikriga ega bo‘lib, o‘zining asarlarida buni aks etdi. Istiqlol davr she’riyatining o‘ziga xos bo‘lgan yana bir xususiyati milliy urf-odatimizni tarannum etgan diniy qadriyatimiz bo‘ldi. Sobiq Ittifoq davrida nazardan qolgan, ayniqsa, unutilib borilgan Islomiy an’analarimiz bu davr, she’riyatida qayta jonlandi. Istiqlol shoirlari o‘z she’rlarida diniy urf-odatlarni xalqona tilda, sodda va ravon usulda kuyladilar. Istiqlol davr she’riyatining bu xususiyatiga doir bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi. Ko‘plab olimlar o‘z maqola va monografiyalariga bu xususda ma’lumot berib bordilar. Ayniqsa,

zamonaviy olimlarimiz Ozod Sharofiddinov, Umarali Norvatov, Suvon Meli, Bahodir Qosimov, No'mon Rahimjonov, Uzoq Jo'raqulov, Tohir Shermurodov kabilarni ilmiy izlanishlari shular qatoridandir [4, B.36]. Zamonaviy she'riyatimizdagи diniy-ma'rifiy masalalarni aniq va ravshan ifoda etib bergen dissertatsiyalar yozildi. Bunday tadqiqotlar adabiyotimizni ochilmagan qirralarini namoyon etishga sezilarli hissa qo'shdi. Shunday olimlarni dastlabki safiga yosh olimlarimizdan Raimova Sayyoraning "Mustaqillik davr o'zbek she'riyatida diniy-ma'rifiy mavzuning badiiy talqini" mavzusida yozgan dissertatsiyasi diqqatga molikdir. Iqdidorli olima dissertatsiyasida zamonaviy she'riyatimizda uchraydigan diniy-ma'rifiy masalalarni izchillik bilan yoritgan. S.Raimova zamonaviy she'riyatimizda diniy mavzuda yozilgan she'rlarni xalqona va sodda usulda adabiyot ixlosmandlariga tahlil qilib bergen [5]. Zamonaviy she'riyatimizni o'ziga xos badiiy yangilanishidan yana biri shundaki, zamonaviy shoirlarimiz mumtoz adabiyotimiz vakillari tajribalariga tayangan. O'z she'rlarida ulardan ilhomlangan bo'lsa-da, adabiyot tarixiga kuzatilmagan poetik izlanishlarni yangicha usulidan foydalandilar.

Shoirlar qadimiya mavzu sanalgan - Qur'oni Karim va uning hadislari xususida yangicha yondashuvlarini Istiqlol nafasi bilan hamohangda bayon etdilar. Adabiyotshunos olim Tohir Shermurodning bu xususda aytilgan quyidagi fikrlari e'tiborga loyiqdир. "Yangi hoyotdagи hoyotbaxsh nasim she'rlarning bog'larida ham esa boshladi. Bevosida chin e'tiqotga daxldor she'riyat paydo bo'ldi" [6, B.419]. Zamonaviy o'zbek she'riyati misli ko'rinnagan taraqqiyotga erishdi. She'riyat maydonida kirib kelgan har bir ijodkor o'zining mustaqil uslubi va yo'lini topishga urundi. Shoirlar orasida raqobatli munosabatlar, kurashchanlik his-tiyg'usi yaqqol ko'zga tashlandi. Shoirlar ijodiy munozarani tashkil etdilar. Fikrimizga Muhammad Yusufning quyidagi satrlari dalil bo'ladi:

Shoir shunday ko'pki, ularga yer tor,
Hammasi mashhur va hammasi nomdor.
Uluyg'vor ularga yetmoq ko'p dushvor,
Ammo ular oyga bosib yuzini.
Turganda osmonin bag'riga ilk bor,
Biz olib borgaymiz tuproq isini [7, B.57].

Istiqlol davr adabiyoti ana shunday kurashchanlik ruhida taraqqiy topdi. Har bir qalamkash o'z yo'li va uslubi bilan bu maydonda o'zini sinadi. Ijod sinovini muvaffaqiyat bilan yenggan ijodkorlar sarasida shoir Salim Ashurning o'z o'rni bor. Salim Ashur zamonaviy o'zbek adabiyotida o'z qalami bilan kirib keldi. Erkin fikrlash usuli bilan zamonaviy she'riyat maydonida shuhrat qozondi.

Turmush muammolarini, hayot tashvishlarini keng ko‘lamda, mustaqil mushohadalar idrok etish she’rlarining asosiy maqsadi edi. Istiqlol she’riyatining taraqqiyotida ana shunday erkin ruhdagi falsafiy lirkani olib keldi. Agar O‘zbek adabiyotini osmonga qiyoslasak, Salim Ashur ijodiyoti porloq yulduz misol ko‘zga tashlandi. Salim Ashur she’rlari inson ichki kechinmalarini sadosi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir insonning ichki dard-u quvonchi bo‘ladi. Ulardan ayrimlarini hech kimga aytolmaydi. Maslahat so‘rolmaydi. Dardlariga she’rlar yordamida davo topib, qalbiga taskin beradi. Hayotda, yashashga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshiradi. Inson uchun yashashdan boshqa muhimroq va fayzliroq hadya yo‘q. She’riyat esa insonni hayotsevarlikka, yashashni sharaflashga o‘rgatadi. Salim Ashur she’rlari esa aynan shunday xususiyati bilan qalblarni mahv etgan. Shoirning she’r yozishdan asosiy maqsadi ham insonsevarlik ruhi bo‘lsa kerak. Zero, u nafaqat shoir sifatida jurnalist nuqtai nazari bilan ham bugungi kun adabiyotimiz rivojiga teran nigohlar bilan boqdi. Ko‘plab ijodkorlar, olimlar, adabiyot ixlosmandlari bilan uyushtirilgan suhbatlari ayni shu fikrlarimizni in’ikosidir. “Ta’kidlash joizki, Salim Ashurning ijodkor va adabiyotshunos olimlarimiz bilan bo‘lgan adabiy suhbatlari davr ruhi, milliy adabiyot va adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari, ijtimoiy hayot, ijodkor shaxs fenomeni, zohir va botin, haqiqat va majoz badiiy adabiyotning bugungi darajasi va mavqeい kabi muhim masalalarga qaratilgan” [8]. Salim Ashur ana shunday xalq dardi bilan hamnafas va hammaslak yashaydigan ijodkordir. Uning ijodiyotida ham bu xususiyat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Insoniyat oldida turgan ko‘plab muammolar xususida o‘z fikr-mulohazalarini she’rlarida bayon etgan. Masalan butun dunyoni larzaga solib kelayotgan bugungi kun muammosi - ekologiya xususida ham qayg‘urib she’rlar yozgan. Shoirning bunday mavzudagi she’rlari har bir zamondoshini o‘ylantiradi. Davr voqea-hodisalariga mushodakorlik ko‘zi bilan qarashga majburlaydi. Salim Ashurning shunday mazmundagi she’rlaridan biri “Yangi sayyora” deb nomlangan bo‘lib atrof-muhitning ifloslanishi, Ona - Yerimizning ekologiyani buzilishi kabi masalalarga ko‘rilgan. Shoirning bu she’ri erkin vaznda yozilgan bo‘lib, qofiya va turoqlanishning qoidalari bo‘ysunmagan. Salim Ashur qalbini qiynagan muammoni erkin fikrlab ozod ruhda bayon etgan:

Erkin kirisholmasdan,

Bemalol cho‘zilolmasdan.

Uzala tusholmasdan,

Yo‘llar qiynalmoqda.

Mashinalar ko‘payganidan [9, B.17]

Zamon taraqqiy etgani sari insonlarni yashashga bo‘lgan ehtiyoji ortadi. Turfa xil buyumlarni xarid qilib, ulardan foydalanishga harakat qiladi. Bu albatta tabiiy holdir. Ayniqsa, zamonaviy texnikaning taraqqiyot davrida mashinalarni ko‘pligi

tashvishlanarli holdir. Ularning ko‘pligi yo‘llarda tirbandlikni hosil qilish bilan birga atrof-muhitning ekologiyasida ham salbiy ta’siri bor. Salim Ashur “Yangi sayyora” she’rida aynan shunday fikrni ilgari surgan. Shoир Yer sharining ob-havosini buzilishi nafaqat tabiatga, balki insoniyatga jiddiy zarar yetkazishini ta’kidlagan. Salim Ashur fikricha insoniyat dunyosi buzilib, odamlar fikrlashdan, sevish va sevilishdan, orzu qilishdan to‘xtayapti. Agar bu muammoni oldi olinmasa insonlarning hayoti xavf ostida qolishi tabiiydir:

Dinozavrlar, mamontlar cheksiz o‘tloqlarda erkin o‘tланан,
Daryolar dengizlarga quyilgan davrlarniqumsab ellips yasaydi.

Tuproqni bossada ter,
Lekin odamlar ozayishini,qabrlar ko‘payishini, sira istamaydi yer... Yer.... [10, B.19].

Guvohi bo‘lganimizdek shoир Salim Ashur zamonamizda yashab, shu davr muammozi bilan nafas olayotgan ijodkor. Uning ijoddagi yutuqlari ham shunda. Istiqlol davr she’riyatini shunday yangicha qarashlari bilan rivojlantirdi. Falsafiy ma’nolari teran she’rlari bilan adabiyotda yangicha ruhiyatni olib keladi. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Salim Ashur Istiqlolning fidoiy shoirdir. Shu vatan ozodligi ruhida kuylab, xalq erkinligini tarannum etdi. Uning she’rlari bugungi kun yoshlarni tarbiyalanishiga,mustaqil yo‘lini topishlariga zamin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov.I.A “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” Toshkent.” O‘zbekiston” 1996-yil.226-bet.
2. N. Ochilov “Istiqlol davr o‘zbek adabiyotining nazariy masalalari” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma.Shahrisabz.2021-yil.
3. Hakimjan Karimov “Istiqlol davr adabiyoti”, “Yangi asr nashriyoti” T-T 2010-6-bet.
4. Afoqova N. “Abdulla Oripov lirikasida badiiy san’atlar” Fil. fanlar nomzodlik diss. avtoreferat. Toshkent. 1997-yil.
5. Raimova Sayyora Zoitovna “Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida diniy -ma’rifiy mavzuning badiiy talqini” F. F. bo‘yicha falsafa doktori (PhD)Toshkent 2021-yil.
6. Mirzayev. S XX asr o‘zbek adabiyoti Toshkent “Yangi asr avlodi” 2005-yil 6-419.
7. M.Yusuf “Biz baxtli bo‘lamiz” Nihol nashriyoti Toshkent 2017-yil.
8. Ilhom G‘aniyev “Murosa ko‘zi bilan qarashlik. Yoxud tahrir, tanqid va xolislik muammozi”.9. Salim Ashur “Buyuk-75”- “Pravo press”- nashriyoti Toshkent 2020.